



O'ZBEK TILIDAGI "BAXT" SEMALI BIRLIKLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Shukurullayeva Ozoda Furqat qizi

Shukurullayeva2026@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilidagi "baxt" semali birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda "baxt" konseptining o'zbek xalqining milliy dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy tafakkuridagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, "baxt" semasini ifodalovchi leksemalar, frazeologik birliklar hamda maqol va matallarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari "baxt" konseptining til orqali milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik birlik ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: baxt, konsept, lingvomadaniyat, lingvokulturologiya, sema, leksema, milliy madaniyat, milliy mentalitet, frazeologizm, maqol va matallar.

Аннотация: В данной статье с позиций лингвокультурологии анализируются национально-культурные особенности языковых единиц с семой «счастье» в узбекском языке. Рассматривается концепт «счастье», его место в национальном мировоззрении, системе ценностей и культурном сознании узбекского народа. Особое внимание уделяется семантическим и лингвокультурным особенностям лексем, фразеологических единиц, пословиц и поговорок, выражающих семантику счастья. Результаты исследования показывают, что концепт «счастье» является важной лингвокультурной единицей, отражающей национальный менталитет и культурные ценности узбекского народа.

Ключевые слова: счастье, концепт, лингвокультурология, sema, лексема, национальная культура, национальный менталитет, фразеологизм, пословицы, культурные ценности.

Abstract: This article examines the national and cultural characteristics of linguistic units containing the semantic component "happiness" in the Uzbek language from a linguocultural perspective. The study explores the concept of happiness and its role in the national worldview, cultural consciousness, and value system of the Uzbek people. Particular attention is paid to the semantic and linguocultural features of lexical units, phraseological expressions, proverbs, and sayings representing the concept of happiness. The findings demonstrate that the concept of happiness is an important linguocultural unit reflecting the national mentality and cultural values embedded in the Uzbek language.

Keywords: happiness, concept, linguoculturology, linguocultural studies, semantic component, lexical unit, national culture, national mentality, phraseology, proverbs.

Kirish. Til xalqning nafaqat aloqa vositasi, balki uning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri, qadriyatlari va dunyoni idrok etish tarzini o'zida mujassam etuvchi muhim madaniy.



hodisadir. Har bir xalqning olam haqidagi tasavvurlari, hayotiy tajribasi, urf-odat va an'analari til birliklari orqali shakllanib, avloddan avlodga yetkaziladi. Shu jihatdan til va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabatni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tadqiqot obyektlaridan sanaladi.

O'zbek xalqining milliy-madaniy tafakkurida baxt tushunchasi alohida o'rin tutadi. Baxt insonning ruhiy qoniqishi, farovon hayoti va ezgu orzu-intilishlari bilan bog'liq universal tushuncha bo'lishi bilan birga, har bir xalqning tarixiy tajribasi va qadriyatlar tizimiga ko'ra o'ziga xos mazmun kasb etadi. O'zbek tilida baxt tushunchasi oila, farzand, ota-ona roziligi, sog'lik, tinchlik, muhabbat, ahillik, rizq-ro'z, baraka, Vatan va osoyishtalik kabi qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shu sababli "baxt" semali birliklarni o'rganish o'zbek xalqining milliy dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini til orqali yoritish imkonini beradi.

O'zbek tilida "baxt" semasi faqat baxt leksemasining bevosita ma'nosi bilan chegaralanmaydi. *Baxtli, baxtiyor, saodat, iqbol, omad, tole, qut, farovonlik* kabi leksik birliklar, shuningdek, baxt va saodat mazmunini ifodalovchi frazeologik birliklar, maqol-matallar, tilak-duolar hamda badiiy ifodalar mazkur semantik maydonning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ushbu birliklarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish orqali o'zbek tilida baxt konseptining qanday shakllangani, uning qaysi milliy qadriyatlar bilan bog'lanishi va xalq tafakkurida qanday mazmuniy belgilar orqali namoyon bo'lishini aniqlash mumkin.

Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalarida, maqol va matallarda, duo va olqishlarda baxt moddiy farovonlikdan ko'ra ko'proq oilaviy totuvlik, farzand kamoli, sog'lik, tinchlik, halol mehnat, qut-baraka va insoniy munosabatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu esa "baxt" semali birliklarda o'zbek xalqining axloqiy me'yorlari, ijtimoiy qarashlari va milliy-madaniy qadriyatlari aks etishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Baxt semali leksemalar va ularning xususiyatlari jahon hamda o'zbek tilshunosligida turli jabhalarda tadqiq etilmoqda. Ushbu sohaning o'rganilish an'anasi dastlab xorijiy tilshunoslikda shakllangan bo'lib, unda asosan D.S. Lixachev, V.I.Karasik, J. Lyons kabi bir necha olimlar leksemaning shakllanishi va lingvomadaniy jihatdan badiiy matnlarda qo'llanilishi haqida ifoda etilgan bo'lsa, J.B. Watson, E.L.Thorndike, W.Uilson va R.Woldingerning "Yaxshi hayot" nomli kitobida baxt tushunchasi inson psixologiyasi bilan birgalikda o'rganilgan va uning xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan. Tatarkevich V. "*О счастье и совершенстве человека*" nomli kitobida ham tadqiqotlari natijasida baxtni gibridd, ximerik tushuncha sifatida, tashqi va ichki olamni bog'laydigan, semantik noaniq, mavhum bir tushuncha sifatida o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida esa T.Mardiev, A. Hojiyev, S.S.Karimova, M.Mirtojiyev, O.Ahmedova, B. Xudoyqulov kabi olimlarning izlanishlari ahamiyatga ega bo'lib, unda leksemalarning shakllanish jarayoni, yuzaga keladigan madaniy - semantik xususiyatlari, frazeologik birliklar, konseptlarning semantik tahlillari kabi bir necha jihatlarni chuqur tahlil



qilganlar. Ularning tadqiqotlari nafaqat til tizimi doirasida, balki madaniyatlararo va lingvokulturalogik yondashuv asosida o'rganish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada psixoanalitik, tavsifiy-tahliliy, badiiy-tahliliy, kontekstual tahlil, germeneytik tahlil, psixologik tahlil va matn tahlili metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O'zbek tilidagi "baxt" semali birliklarning lingvomadaniy tahlili mazkur tushunchaning xalqning milliy tafakkuri, ma'naviy qadriyatlari va hayotiy tajribasi bilan chambarchas bog'langanligini ko'rsatadi. "Baxt" insoniyat uchun universal tushuncha bo'lsa-da, uning til vositalari orqali ifodalanishi muayyan xalqning dunyoqarashi, tarixiy-madaniy tajribasi va qadriyatlar tizimiga muvofiq milliy xususiyat kasb etadi. Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan til birliklari xalqning madaniy xotirasini saqlovchi va uning olam haqidagi tasavvurlarini namoyon qiluvchi vosita sifatida qaraladi. V.A. Maslovaning ta'kidlashicha, lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning o'zaro munosabati hamda madaniyatning tilda namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan fan hisoblanadi.⁷ O'zbek tilining izohli lug'atida baxt leksemasi insonning hayotdan qoniqishi, maqsad va orzu-istaklarining amalga oshishi bilan bog'liq ijobiy holatni ifodalovchi birlik sifatida talqin etiladi.⁸ Mazkur leksema atrofida *baxtli*, *baxtiyor*, *saodat*, *iqbol*, *tole*, *omad*, *qut*, *baraka*, *farovonlik* singari birliklardan iborat keng semantik maydon shakllanadi. Ularning barchasida ijobiy holat, muvaffaqiyat va farovonlik semalari mavjud bo'lsa-da, har bir birlik o'ziga xos ma'no qirrasiga ega.

Jumladan, *baxt* keng ma'noda insonning hayotidan mamnunligi va ezgu istaklarining ro'yobga chiqishini anglatadi, *saodat* ruhiy qoniqish, farovon va baxtiyor hayot mazmunini kuchliroq ifodalaydi. *Omada* muayyan faoliyat yoki vaziyatning muvaffaqiyatli kechishi bilan bog'liq bo'lsa, *tole* insonning nasibasi, taqdiri va hayot yo'liga aloqador tushunchalarni anglatadi. *Qut* va *baraka* birliklari esa o'zbek xalqining an'anaviy dunyoqarashida xonadon farovonligi, rizq-ro'zning mo'lligi, fayz va osoyishtalik bilan bog'langan. Shu jihatdan "baxt" semantik maydoni nafaqat individual ruhiy holatni, balki milliy qadriyatlarni ham aks ettiradi.

"Baxt" tushunchasining milliy-madaniy mohiyatini ochishda oila konsepti alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining an'anaviy dunyoqarashida insonning baxti ko'pincha uning oilasi, farzandlari, ota-onasi va yaqinlarining farovonligi bilan bog'liq holda baholanadi. Shu sababli *oilaviy baxt*, *baxtli oila*, *farzand baxti*, *baxtli turmush*, *baxtini ko'rmoq* kabi birliklarda baxt individual tushunchadan ijtimoiy va oilaviy qadriyat darajasiga ko'tariladi.

Bu holat o'zbek xalq maqollarida ham kuzatiladi. Maqol va matallar xalqning ko'p asrlik tajribasi, ijtimoiy qarashlari va axloqiy me'yorlarini ixcham shaklda ifodalovchi

⁷ Маслова В. А. Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — М.: Академия, 2001.

⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.





paremiologik birliklardir. Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedov tomonidan tuzilgan “Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati”da o‘zbek xalqining mehnat, oila, yaxshilik, omad, davlat va baxt haqidagi qarashlarini ifodalovchi ko‘plab paremiologik birliklar jamlangan.⁹ Bu esa baxt tushunchasining xalq tafakkuridagi mazmunini paremiologik material asosida o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbek lingvomadaniyatida baxtning muhim tarkibiy belgilaridan yana biri qut-baraka tushunchasidir. *Xonadoningizdan qut-baraka arimasin, dasturxoningiz to‘kin bo‘lsin, rizqingiz butun bo‘lsin* kabi tilak va olqishlarda inson baxti moddiy boylikning o‘zi bilan emas, balki uning barakasi, oiladagi tinchlik va xonadonning fayzi bilan bog‘lanadi. Bunday birliklar xalqning an‘anaviy turmush tarzi va qadriyatlar tizimida farovonlikning faqat iqtisodiy emas, balki ma‘naviy-axloqiy mezonlarga ham asoslanganini ko‘rsatadi.

Tahlil jarayonida “baxt” semali birliklarning tinchlik va sog‘lik tushunchalari bilan yaqin semantik munosabati ham kuzatiladi. O‘zbek xalqining dunyoqarashida tinch va osoyishta hayot, insonning o‘zi hamda yaqinlarining sog‘lom bo‘lishi baxtning muhim shartlaridan hisoblanadi. “Sog‘lik — tuman boylik” kabi xalq maqollarida sog‘lomlik moddiy ne‘matlardan yuqori qo‘yiladi.¹⁰ Shu nuqtayi nazardan, baxt konseptining mazmuniy tuzilishida sog‘lik, xotirjamlik va osoyishtalik semalari muhim o‘rin egallaydi.

“Baxt” semantik maydonida mehnat tushunchasi ham alohida ahamiyatga ega. O‘zbek xalq maqollarida insonning farovonligi va muvaffaqiyati ko‘pincha mehnatsevarlik bilan bog‘lanadi. “Mehnatning tagi — rohat” paremasida mehnat insonni rohat va farovonlikka olib boruvchi asosiy vosita sifatida baholanadi.¹¹ Bu jihat o‘zbek milliy tafakkurida baxtning faqat tasodifiy omad yoki tashqi kuchlarga bog‘liq hodisa sifatida emas, balki insonning harakati, sabri va mehnati natijasi sifatida ham tushunilishini ko‘rsatadi. Demak, “baxt” konseptida nasiba sifatidagi baxt hamda mehnat orqali yaratiladigan baxt kabi ikki mazmuniy yo‘nalish o‘zaro uyg‘unlashadi.

Baxtning nasiba va taqdir bilan bog‘liq jihatlari *tole, iqbol, omad* birliklarida yanada aniq namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi *omadi kelmoq, omadi chopmoq, tolei baland, iqboli kulmoq* singari frazeologik va obrazli ifodalar inson hayotidagi muvaffaqiyatli vaziyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Frazeologik birliklar xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va obrazli tafakkurini o‘zida mujassamlashtirishi bilan alohida ahamiyatga ega. Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” o‘zbek frazeologizmlarining semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim manbalardan biridir.¹²

O‘zbek nutq madaniyatida tilak, duo va olqishlar ham “baxt” konseptining milliy-madaniy mazmunini ifodalovchi muhim vositalardan sanaladi. *Baxtli bo‘ling! Baxtingiz*

⁹ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbek sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.

¹⁰ O‘zbek xalq maqollari / T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. — Toshkent: Sharq, 2005.

¹¹ O‘zbek xalq maqollari / T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. — Toshkent: Sharq, 2005.

¹² Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1978.





butun bo'lsin! Baxtingizni bersin!, Ikki yosh baxtli bo'lsin! Farzandlaringizning rohatini ko'ring! kabi birliklarning nikoh, tug'ilish, yubiley va boshqa marosimlarda qo'llanishi baxtning shaxsiy hodisadan tashqari jamoaviy qadriyat sifatida idrok etilishini ko'rsatadi. Bunda tilak bildiruvchi shaxs nafaqat suhbatdoshiga yaxshilik istaydi, balki xalq tomonidan shakllantirilgan oila, farzand, uzoq umr, sog'lik va farovonlik kabi qadriyatlarni ham nutq orqali namoyon qiladi.

Baxt tushunchasining yana bir muhim xususiyati uning baholash kategoriyasi bilan bog'liqligidir. *Baxtli, baxtiyor, saodatli, tolei baland* birliklarida ijobiy baho ifodalansa, *baxtsiz, tolesiz, baxti qora, baxti kulmagan* kabi birliklarda salbiy baholash kuzatiladi. "Baxt–baxtsizlik" qarama-qarshiligi orqali inson hayotining ikki qutbi — farovonlik va mushkul holat, orzularning amalga oshishi va amalga oshmasligi lingvistik jihatdan ifodalanadi. Bu oppozitsiya baxt tushunchasining semantik chegaralarini aniqlashda ham muhimdir.

Xulosa. Tahlillar o'zbek tilidagi baxt konseptida jamoaviylik belgisi individual xususiyatga nisbatan kuchli ekanini ko'rsatadi. O'zbek lingvomadaniyatida insonning baxti uning oilasi va yaqinlari hayotidan ajratilgan holda tasavvur qilinmaydi. *Farzand baxti, oila baxti, ota-ona roziligi, xonadonning qut-barakasi* kabi birliklarning faol qo'llanishi buning yaqqol dalilidir. Bu holat milliy tafakkurda baxt tushunchasining oila va jamiyat bilan uyg'unlikda shakllanishini ko'rsatadi. Shunday qilib, tahlil natijalariga ko'ra, o'zbek tilidagi "baxt" semantik maydonining yadrosini baxt leksemasi tashkil etsa, *baxtiyor, saodat, tole, iqbol, omad, qut, baraka, farovonlik* kabi birliklar uning yaqin semantik qatlamlarini yuzaga keltiradi. Oila, farzand, sog'lik, tinchlik, mehnat, rizq-ro'z va xotirjamlik bilan bog'liq tushunchalar esa baxtning milliy-madaniy mazmunini kengaytiradi. O'zbek xalqining lingvomadaniy olamida baxt, avvalo, insonning yolg'iz muvaffaqiyati emas, balki oila farovonligi, yaqinlar salomatligi, xonadon qut-barakasi, tinchlik va halol mehnat bilan uyg'unlashgan qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маслова В. А. *Лингвокультурология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений*. — М.: Академия, 2001.
2. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildli / A. Madvaliyev tahriri ostida. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. *Hikmatnoma: o'zbek maqollarining izohli lug'ati*. — Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.
4. *O'zbek xalq maqollari* / T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. — Toshkent: Sharq, 2005.
5. *O'zbek xalq maqollari* / T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. — Toshkent: Sharq, 2005.
6. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati*. — Toshkent: O'qituvchi, 1978.

